

**JAMOAT XAVFSIZLIGI BO‘YICHA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK
MUNOSABATLARIDA KELIB CHIQUADIGAN NIZOLAR: SUD QARORLARI
ASOSIDA HUQUQIY TAHLIL VA AMALIY XULOSALAR**

Saidov Sharofiddin Abdug‘aniyevich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18361915>

Annotatsiya. Maqolada jamoat xavfsizligi yo‘nalishida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan nizolar hamda ularni sud tartibida ko‘rib chiqish amaliyotining huquqiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot DXSh shartnomalarining huquqiy tabiati, majburiyatlarni bajarish mezonlari va shartnoma talqini, taraflarning javobgarligi hamda risk taqsimotining sud amaliyotida aks etishiga qaratilgan. Sud ishlarida ko‘p uchraydigan masalalar sifatida shartnoma predmetining aniqligi, xizmat sifati va natijadorligini isbotlash (KPI/SLA), qabul-topshirish hujjatlarining isbot kuchi, to‘lov intizomi, jarimalar va kompensatsiya, fors-major, shartnomani o‘zgartirish yoki bir tomonlama bekor qilish asoslari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ma‘lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik, maxfiylik majburiyatlari, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi komplaens, manfaatlar to‘qnashuvi kabi omillar nizolarni kvalifikatsiya qilish va dalillashda muhim determinantlar sifatida baholanadi.

Maqola yakunida sud amaliyotidan kelib chiqib DXSh shartnomalarini tuzish, ijro etish va nizolarni oldini olish bo‘yicha amaliy-huquqiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik; jamoat xavfsizligi; sud amaliyoti; shartnoma nizolari; huquqni qo‘llash; KPI/SLA; qabul-topshirish dalolatnomasi; javobgarlik; fors-major; komplaens.

Аннотация. В статье анализируются споры, возникающие при реализации проектов государственно-частного партнёрства (ГЧП) в сфере общественной безопасности, а также особенности их рассмотрения в судебной практике.

Исследование сосредоточено на правовой природе договоров ГЧП, критериях надлежащего исполнения, подходах к толкованию договора, распределении ответственности и рисков, отражённых в судебных решениях. Рассматриваются типовые проблемные вопросы: определённость предмета договора, доказывание качества и результативности услуг (KPI/SLA), доказательственное значение актов приёмки, платёжная дисциплина, штрафы и компенсации, форс-мажор, основания изменения и одностороннего расторжения договора. Отдельное внимание уделяется спорам, связанным с защитой данных и кибербезопасностью, режимом конфиденциальности, требованиями прозрачности и антикоррупционного комплаенса, конфликтом интересов. В заключении сформулированы практико-ориентированные рекомендации по улучшению договорного дизайна, снижению конфликтности и повышению правовой устойчивости ГЧП в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство; общественная безопасность; судебная практика; договорные споры; правоприменение; KPI/SLA; акты приёмки; ответственность; форс-мажор; комплаенс.

Abstract. This article examines disputes arising from public-private partnership (PPP) projects in the public safety sector and analyzes how courts resolve such conflicts.

The study focuses on the legal nature of PPP contracts, standards for proper performance, interpretative approaches, and judicial views on the allocation of risks and liabilities. Common litigation issues are reviewed, including the specificity of contractual scope, evidentiary requirements for service quality and performance (KPIs/SLAs), the probative value of acceptance certificates, payment discipline, penalties and compensation, force majeure, and grounds for contract modification or unilateral termination. The paper also addresses disputes related to data protection and cybersecurity, confidentiality obligations, transparency and anti-corruption compliance, and conflicts of interest. The article concludes with policy-oriented recommendations to strengthen contract design, prevent disputes, and enhance the legal resilience of PPP-based public safety arrangements.

Keywords: public-private partnership; public safety; case law; contractual disputes; law enforcement; KPIs/SLAs; acceptance certificates; liability; force majeure; compliance.

Jamoat xavfsizligi sohasida DXSh loyihalari infratuzilma va texnologiyalarni tezkor joriy etish, servis sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, xavfsizlik bilan bog'liq xizmatlar "yuqori xatarli" va ommaviy manfaatlarga daxldor bo'lgani sababli DXSh shartnomalarini tuzish va ijro etish jarayonida nizolar yuzaga kelishi ehtimoli ham ortadi. Amaliyotda shartnoma predmetining noaniqligi, natijadorlik ko'rsatkichlarining (KPI/SLA) yetarlicha aniqlashtirilmagani, qabul-topshirish hujjatlari va nazorat mexanizmlarining sustligi, shuningdek ma'lumotlar himoyasi va komplains talablarining buzilishi nizolarning asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola sud amaliyoti misolida ushbu nizolarni huquqiy kvalifikatsiya qilish va huquqni qo'llash tendensiyalarini ochib berishga qaratilgan.

Yangi O'zbekistonda shu kabi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida qator sohalarda tub islohotlar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. Xususan, aholining tinchligi va farovonligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash maqsadida davlat qator sohalardagi o'z faoliyatini amalga oshirish uchun xususiy sektorlarni ham jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirmoqda. Xususan, Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan 2020 yil 7 dekabrda "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ - 4913-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida "Davlat funksiyalari – biznes uchun imkoniyat" loyihasi doirasida davlat tomonidan tartibga solinadigan *"Normativ huquqiy va metodologik bazani shakllantirish"*, *"davlat organlari funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish kompleks mexanizmini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari"* va *"xususiy sektor tomonidan davlat funksiyalarini amalga oshirish samaradorligini oshirish"* kabi yo'nalishlarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Mazkur yo'nalishlar o'z navbatida quyidagi sohalarni qamrab oldi. Jumladan:

a) normativ-huquqiy va metodologik bazani shakllantirish yo'nalishi bo'yicha – *"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"*gi, *"Tadbirkorlik va professional faoliyat subyektlarini o'z-o'zini tartibga solish to'g'risida"*gi Qonunlar, shuningdek, *"Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish tartibi*

to'g'risida"gi hamda "Elektron kuzatuv maskanlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari shular jumlasidandir;

b) davlat organlari funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish kompleks mexanizmini joriy etish yo'nalishi bo'yicha – kadastr ishlarini bajarish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash; milliy haydovchilik guvohnomasini berish; davlat xizmatlarini ko'rsatish va ichki ma'muriy-xo'jalik faoliyatini ta'minlash kabi sohalarda;

v) xususiy sektor tomonidan davlat funksiyalarini amalga oshirish samaradorligini oshirish yo'nalishi bo'yicha – xususiy sektorlarda elektron maydoncha yaratish. Bundan tashqari, vazirlik va idoralar kesimida xususiy sektorga o'tkazilishi mumkin bo'lgan davlat funksiyalarini tahlil etish mexanizmlarini yo'lga qo'yishga qaratilgan davlat funksiyalarining **yagona reestrini** yuritish shular jumlasidandir.

Shu o'rinda, Yangi O'zbekistonda davlat organlarining funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazishning o'ziga xos jihatlari, mamlakat aholisi va halqaro ekspertlarning bugungi kundagi siyosiy o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlarini ilmiy o'rganish orqali "Obod va xavfsiz mahalla", "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat", "Aqlli shahar" va "Xavfsiz shahar" g'oya va tamoyillarga asoslangan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish mazkur tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklikning o'ziga xos jihatlari to'g'risida qator xorijlik huquqshunos olimlar o'z ilmiy asarlarida fikr va muloxazalar bildirishgan. Jumladan, rusmiyalik huquqshunos olimlar V.Varnavskiy¹, G.A. Borщевskiy², Ye. A. Popov, S. K. Abramyan va A. V. Agafonov³ va E.R.Yeskomb⁴ larning fikricha davlat-xususiy sheriklikning o'ziga xos jihatlardan biri davlat o'ziga tegishli bo'lgan biron-bir vazifani yozma shartnoma asosida iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan yuridik tashkilot (tadbirkor)ga ortirilgan daromadga teng sherik bo'lish asos hamda uni faoliyatini davlat tomonimdan tizimli nazorat qilish asosida berishdir.

Mazkur tushunchalardan bilish mumkinki, har bir davlatning rivojlanganlik darajasini aniqlash jarayonida ijtimoiy omillardan ko'ra ko'proq aniq iqtisodiy mezonlar hisobga olinishi borasidagi qarashlar ustunlik qiladi. Bunday mezonlardan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromaddir. Bugungi kunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsuloti yuqori bo'lgan mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar sifatida qabul qilinadi. Yana bir iqtisodiy mezon bu – sanoatlashuvdir.

¹Варнавский, В. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики / В. Варнавский. – Текст : электронный // Мировая экономика и международные отношения. – 2011. – № 9. – С. 41 – 50.

²Борщевский, Г. А. Государственно-частное партнерство : учебник и практикум для СПО / Г. А. Борщевский. – Litres, 2021. – 282 с. – Текст : электронный

³Попов, Е. А. Государственно-частное партнерство как объект правового регулирования / Е. А. Попов, С. К. Абрамян, А. В. Агафонов. – Текст : электронный // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. – 2018. – №. 1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosu-darstvenno-chastnoe-partnerstvo-kak-obekt-pravovogo-regulirovaniya/viewer>

⁴Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования / Э. Р. Йескомб Пер. с англ. — М. : Альпина Паблишер, 2019. — 457 с. — URL: https://www.rulit.me/data/programs/resources/pdf/Yeskomb_Gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo_RuLit_Me_591167.pdf. – Текст : электронный.

Alohida taakidlash joizki so‘nggi yillarda barcha rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida sanoatning uchinchi hamda to‘rtinchi tarmoqlari hukmron bo‘lgan mamlakatlar odatda rivojlangan mamlakatlar sifatida qabul qilinadi. Yaqin vaqtlardan boshlab yana bir ko‘rsatkich, ya’ni iqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy daromad va boshqa ko‘rsatkichlar, shuningdek, o‘rtacha umr ko‘rish va ta’lim tizimi holatini umumlashtirgan Inson taraqqiyoti indeksi darajasi ham keng qo‘llanila boshlandi.

Bu mezon rivojlangan mamlakatlarni juda yuqori reytingga ega davlatlar sifatida belgilanadi.

Shu o‘rinda, bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasidagi qaysi davlatlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar qabul qilgan? Qaysi mamlakatlar esa rad etgan? degan o‘rinli savol yuzaga keladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar davrida rivojlangan davlatlardan **Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Shvesiya va Irlandiya** kabi davlatlar birinchilardan bo‘lib, davlat-xususiy sheriklik asosidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o‘z jamiyat hayotiga singdirgan bo‘lsa, keyingi bosqichda esa **Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi** hamda **Qazag‘iston Respublikasi** kabi davlatlarining normativ-huquqiy bazalarida o‘z aksini topgan.

Mazkur davlatlardan, **Avtraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Ispaniya va Janubiy Koreya** davlatlarida aynan davlat-xususiy sheriklikning quyidagi loyixalari amaliyotda o‘zining yuqori natijasini ko‘rsatgan. Xususan, **Avstraliyada** “*Avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, aloqa vositalari*”⁵ loyihalari, **Germaniyada** “*Ta’lim muassasalari, huquqni muhofaza qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari*”⁶ sahalarida, **Buyuk Britaniyada** “*Transport sektori, sog‘liqni saqlash, ta’lim obyektlari*”, shuningdek, “*Yashil iqtisodiyot*”⁷ sahalarida, **Kanadada** “*Sog‘liqni saqlash, transport, suv ta’minoti, energetika, sanoat chiqindilarini yo‘q qilish inshootlari*”⁸ sahalarida, **Ispaniyada** “*Transport*”⁹ sohasida hamda **Janubiy Koreyada** esa “*Transport inshootlari, maktablar, harbiy obyektlar, chiqindilarni qayta ishlash inshootlari*”¹⁰ kabi sohalarda qabul qilingan loyihalar amaliyotda juda davlat ravnaqi uchun o‘z xissasini qo‘shgan.

Bundan tashqari iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan **Rossiya Federatsiyasining** tajribasida esa budjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish usullari orqali davlat-xususiy sheriklik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qator normalar qabul qilingan.

⁵ Шаповалова Н. В. Государственно-частное партнерство: зарубежный опыт / Н. В. Шаповалова, Н. В. Королева // Проблемы управления рыночной экономикой : межрегиональный сборник научных трудов. — Томск : Изд-во ТПУ. — 2014. — Ч. 1. — С. 119-122. — Текст : непосредственный.

⁶ Ўша манбаа: — С 124.

⁷ Фадюшин, И. С. Международный опыт развития ГЧП / И. С. Фадюшин. — DOI: 10.23670/IRj.2019.82.4.035 // Международный научно-исследовательский журнал. — 2019. — № 4 (82). — С. 39–43. — Текст : непосредственный.

⁸ Ўша манбаа: - С 44.

⁹ Ўша манбаа: - С 44.

¹⁰ Взаимодействие государства и бизнеса: учебное пособие / Л. А. Добрынин, Марковская Е. И., Медведь А. А., Привалов Н. Г., Рагимова Н. С., Троицкая И. В. — СПб: Издательство СПбГЭУ, 2014. — 192 с. — Текст : непосредственный.

Xususan, Federalnyy zakon № 44-FZ «O kontraktnoy sisteme v sfere zakupok tovarov, rabot, uslug...»», Federalnyy zakon № 223-FZ «O zakupkax tovarov, rabot, uslug otdelnymi vidami yuridicheskix lis» i polojeniya o zakupkax sootvetstvuyushix yuridicheskix lis, Federalnyy zakon № 115-FZ «O konsessionnyx soglasheniyax», Federalnyy zakon № 224-FZ «O gosudarstvenno-chastnom partnerstve, munitsipalno-chastnom partnerstve...»¹¹ kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida bayon etilgan rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribasidan kelib chiqib, bugungi kunda yangi O'zbekistonda xususiy sektorlarni davlat organlari faoliyatiga jalb qilish holati qanday?, Davlat-xususiy sheriklik faoliyati bilan bog'liq muammoli holatlar va ularni keltirib chiqaruvchi sabab va omillar nimalardan iborat? degan savol yuzaga keladi.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda mamlakat ravnaqi uchun xususiy davlat sektorlarini keng jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni va 2020 yil 7 dekabrda "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 4913-son qarori asosida shu kunga qadar mamlakatda jami 41 turdagi¹² qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Shundan, 1 ta qonun, 18 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va 22 ta Vazirlar Mahkamasi Qarorlari shular jumlasidandir. Mazkur normalar sohalari kesimida tahlil qilinganda qabul qilingan normalarning **eng yuqori ko'rsatkichi maktabgacha ta'lim, davlat-xususiy sheriklik asosida qonunchilik milliy bazasini takomillashtirish va ko'chmas obyektlarni qurilishi** bilan bog'liq sohalarni qamrab olgan bo'lsa, **eng past ko'rsatkich esa ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va suv ta'minoti** bilan bog'liq sohalarga to'g'ri kelmoqda.

Shu o'rinda, bugungi kunda, yangi O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan qaysi turdagi sohalarga nisbatan fuqarolarning e'tirozlari ortmoqda? degan o'rinli savol yuzaga kelishi tayin. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuningdek, ommaviy axborot vositalari yoritilgan dayjestlarni tahlillaridan bilish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2018 — 2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qaror bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va zamonaviy yo'l infratuzilmasini tashkil etish sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi vaqtinchalik Nizom¹³da belgilangan yo'l harakati faoliyatini monitoringi va intellektual videokameralarning integratsiyalashgan tizimlarini joriy etish shuningdek, mamlakatda zamonaviy yo'l infratuzilmasini tashkil etish bo'yicha loyihalar doirasida xususiy investitsiyalarni jalb qilish yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi

¹¹ https://invest.nso.ru/sites/invest.nso.ru/wodby_files/files/federalnyy_zakon_ot_13.07.2015_no_224-fz_red_10.07.2023_o_gosudarstvenno-chastnom_partnerstve_municipalno-chastnom_partnerstve_v_rossiyskoy_federacii_i_vnesenii_izmeneniy_v_otdelnye_zakonodatelnye_akty_rossiysk.pdf

¹² Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси // lex.uz

¹³ Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // <https://lex.uz/docs/4096189#4102388>

mamlakat aholisini turli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Yuksalish umummilliy harakati raisi va Oliy Majlis deputati Bobur Bekmurodov yo'llarga o'rnatilgan kuzatuv kameralari va jarimalar yuzasidan o'z murojaatini e'lon qilib, unda kameralardagi kamchiliklar va "noinsof" tadbirkorlar ustidan arz qilgan¹⁴.

Mamlakatda shu kabi e'tirozlarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan 2021 yil 16 iyunda "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni¹⁵ qabul qilindi. Mazkur farmonga asosida mamlakatda maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari o'rnatilgan aniq manzillar, individual tartibda har bir dasturiy-texnik vositasi qayd etadigan yo'l harakati qoidalariga buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham ochiq e'lon qilish tartibi belgilangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan shu kabi normalarni ijrosini nazorat qilish shuningdek, respublika hududida ishga tushirilgan onlayn rejimida ishlovchi fotoradarlar va intellektual rejimida ishlovchi kameralar to'g'risidagi ma'lumotlar monitoring asosida o'rganilganda, 2023 yilda¹⁶ respublika bo'yicha onlayn rejimda ishlovchi 746 fotoradar va intellektual rejimida ishlovchi kameralar ishga tushirilgan. Ularning 23 tasi yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qiluvchi, 723 tasi ruxsat etilgan harakatlanish tezligiga hamda yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga mo'ljallangan statsionar radarlarni tashkil etgan.



¹⁴ Бекмurodov Б. "Юксалиш ҳаракати раиси видеокузатув камераларидаги камчиликлар юзасидан мурожаати" номли мақола // <https://bugun.uz/juksalish-arakati-raisi-videokuzatuv-kameralari-dagi-kamchiliklar-juzasidan-murozhaat-j-lladi?ysclid=lxivqfjgos989443384>

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // <https://lex.uz/docs/5459107>

¹⁶ https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-nechta-fotoradar-va-intellektual-kuzatuv-kameralari-bor_506016?q=%2Fposts%2Fozbekistonda-nechta-fotoradar-va-intellektual-kuzatuv-kameralari-bor_506016

Mazkur foto va intellektual rejimda ishlovchi kameralar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga (182 ta) to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan shu kabi islohotlarga samaradorligiga qaramasdan, birgina 2023 yilning olti oyi davomida Toshkent shahrining o'zida 558 ta YTH sodir bo'lgan.

Bundan tashqari, yangi O'zbekistonda ta'lim tizimiga ham xususiy sektorni jalb etilishi bugungi kunda ayrim ko'rinishdagi nizoli holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda. Xususan, "Kun.uz"ga Toshkentdagi Central Asian University (avvalgi Akfa) universiteti talabalarining ota-onalaridan shikoyatlar kelib tushgan. Mazkur shikoyat mazmuniga ko'ra, Central Asian University (avvalgi Akfa) universiteti bilan talabalarining ota-onalari o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra maktabning bitiruvchi sinfida o'qib turgan o'quvchilar bir vaqtning o'zida "Part-time" dasturi doirasida "Akfa" universitetining 1-kursini o'qib tugatishi va maktabni bitirishi bilanoq universitetning 2-kursiga qabul qilinishi belgilangan. Ammo, 2022-2023-o'quv yilida mazkur dasturda o'qigan talabalar yangi o'quv yilida universitetning 2-kursiga qabul qilinmasligi va 1-kursni qaytadan o'qishlari lozimligi aytilgan. Shundan so'ng, ma'muriyat va talabalarining ota-onalari o'rtasida [nizo kelib chiqqan](#). Part-time dasturini tamomlab, bu yil 2-kursda o'qishni boshlashi kerak bo'lgan talabalar darslarga qo'yilmagan. Ular bir o'quv yili uchun 40 mln so'm kontrakt to'lagan¹⁷.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi IJQK departamenti Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi tomonidan olib borilgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlariga ko'ra, bundan ikki yil avval "Akfa" universitetining sobiq rektori 1990 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan "Bekzod Djalilov" tomonidan "Study for the success" MChJni Universitet ta'sisчисidan yashirin holda, firibgarlik yo'li bilan o'ziga qo'shimcha mablag' ishlash maqsadida jalb qilgan, amaldagi qonunlarga xilof yo'l bilan ushbu MChJ nomidan ota-onalar bilan shartnomalar tuzgan. Shartnomaga muvofiq ota-onalarga ularning farzandlari maktabning 10-11 sinflarida o'qish bilan bir vaqtning o'zida "Akfa" universitetining 1-kursini o'qib tugatishi va maktabni bitirishi bilanoq Universitetning 2-kursiga qabul qilinishi MChJ tomonidan va'da qilingan va ota-onalar ushbu xizmat evaziga MChJ hisob raqamiga muayyan to'lovlarni qilishgan.

Mazkur holat bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi IJQK departamenti Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi tomonidan "Au Financial Investment Team" MChJning sobiq mansabdor shaxslari va "Cyber Genesis Systems" MChJ mansabdor shaxslariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Yuqorida davlat-xususiy sheriklik asosida davlatning "yo'l harakati xavfsizligi" va "ta'lim" sohalariga funsiyalarni ijrosini ta'minlashda yuzaga kelayotgan solbiy holatlar va normalar o'rtasidagi ziddiyatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida, davlat-xususiy sheriklik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Bularga:

¹⁷ <https://kun.uz/kr/news/2023/09/25/akfa-universiteti-central-asian-universityda-janjal-sobiq-va-amaldagi-rahbariyatning-kelishmovchiligi-talabalarga-qimmatga-tushmoqda?ysclid=lxiy58han0320146789>

birinchidan, davlat organlarining tegishli funksiyalarini xususiy sheriklik asosida amalga oshiruvchi yuridik shaxslar o'rtasida elektron auksion o'tkazish tartibini belgilash;

ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat ko'rsatuvchi yuridik tashkilotlar hisobotini yilda bir marotaba monitoring asosida o'rganish hamda faoliyat qoniqarsiz deb topilganda shartnomani bir taraflama bekor qilish;

uchinchidan, xususiy sektorlar faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirish boshqarmasini zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish;

to'rtinchidan, xususiy sektorlar faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirish boshqarmasi xodimlarini malakasini oshirish uchun ularni rivojlangan davlatlarga qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborish tartibini joriy etish.

Sud amaliyoti DXSh nizolarida hal qiluvchi omillar sifatida shartnoma predmetining aniqligi, risk va javobgarlikning muvozanatli taqsimoti, KPI/SLA mezonlari va ularni isbotlash standartlari, shuningdek qabul-topshirish hujjatlarining protsessual ishonchliligini ko'rsatadi. Nizolarni kamaytirish uchun shartnomalarda xizmat natijasini o'lchash mezonlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, o'zgarishlarni boshqarish (change management) va bir tomonlama bekor qilish asoslarini aniq belgilash, fors-major rejimini dalillash talablari bilan uyg'unlashtirish zarur. Bundan tashqari, ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi komplainsni majburiy shartnoma bandlariga aylantirish hamda davlat nazorati/auditning real instrumentlarini kuchaytirish DXSh loyihalarining huquqiy barqarorligini oshiradi.

Natijada, sud amaliyotidan olinadigan xulosalar DXShni jamoat xavfsizligida joriy etishda "oldindan nizoni boshqarish" va "huquqiy aniqlik" prinsiplarini ustuvor qo'yish zarurligini tasdiqlaydi.